



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

7-jild
7-son
Iyul, 2026

July, 2026
Volume 7
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILG'OR YECHIMLARI

Xasanov Shamsiddin Xafizovich

ПЕРЕДОВЫЕ РЕШЕНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПРАКТИКИ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Хасанов Шамсиддин Хафизович

ADVANCED SOLUTIONS TO ENHANCE LENDING PRACTICES FOR MANUFACTURING ENTERPRISES

Khasanov Shamsiddin Khafizovich

Received: July 1, 2026 Revised: July 6, 2026 Accepted: July 9, 2026 Published: August 1, 2026

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash jarayonlarini takomillashtirish va mavjud to'siqlarni bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda soliq imtiyozlari va investitsion soliq kreditlari mexanizmidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda korxonalarning o'z mablag'lari va soliq tejajmanlari hisobidan kredit qaytaruvchanligini ta'minlash yo'llari yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Ishlab chiqarish korxonalari, Kreditlash amaliyoti, Soliq manbalari, Investitsion soliq krediti, Moliyaviy barqarorlik, Soliq imtiyozlari, Kredit mexanizmi, Modernizatsiya, Innovatsion faoliyat, Tijorat banklari, Soliq yukini kamaytirish

Аннотация. В статье исследуются вопросы совершенствования процессов кредитования производственных предприятий и пути устранения существующих барьеров. Автор анализирует возможности использования налоговых льгот и механизмов инвестиционного налогового кредита для повышения эффективности использования кредитных ресурсов. В исследовании освещены способы обеспечения возвратности кредитов за счет собственных средств предприятий и налоговой экономии. Также разработаны научные предложения и рекомендации по повышению финансовой устойчивости субъектов производственной сферы.

Ключевые слова. Производственные предприятия, Практика кредитования, Налоговые источники, Инвестиционный налоговый кредит, Финансовая устойчивость, Налоговые льготы, Кредитный механизм, Модернизация, Инновационная деятельность, Коммерческие банки, Снижение налогового бремени

Abstract. The article examines issues of improving lending processes for manufacturing enterprises and ways to eliminate existing barriers. The author analyzes the possibilities of using tax incentives and investment tax credit mechanisms to increase the efficiency of using credit resources. The study highlights ways to ensure loan repayment through enterprises' own funds and tax savings. Furthermore, scientific proposals and recommendations have been developed to enhance the financial stability of manufacturing entities.

Key words. Manufacturing enterprises, Lending practices, Tax sources, Investment tax credit, Financial stability, Tax incentives, Credit mechanism, Modernization, Innovative activity, Commercial banks, Reducing the tax burden.

■ KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda 2024-yil 16-yanvardagi "Sanoatni rivojlantirish va ishlab

chiqarish quvvatlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat ko'rsatmalari doirasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bugungi kunda ishlab chiqarish



korxonalarini barqaror aylanma mablag'lar bilan ta'minlashda bank kreditlarining o'rni beqiyos, biroq kreditlash amaliyotida yuqori foiz stavkalari va garov ta'minoti bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur masalalarni samarali hal etish uchun nafaqat bank resurslarini, balki davlat tomonidan taqdim etilayotgan soliq manbalari va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini optimallashtirish dolzarb hisoblanadi. Xususan, investitsion soliq krediti va soliq ta'tillari orqali korxonalarda bo'shaydigan mablag'larni kredit majburiyatlarini yopishga yo'naltirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish subyektlarini kreditlash jarayonida soliq yukini kamaytirish va soliq imtiyozlaridan garov o'rnida foydalanish usullarini takomillashtirish sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, kredit va soliq munosabatlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini tadqiq etish mazkur maqolaning asosiy maqsadini belgilab beradi. Korxonalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda soliq manbalarining ichki imkoniyatlarini tahlil qilish, iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan:

1. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th Edition. – New York: Pearson, 2021. – 720 p. Ushbu manbada ishlab chiqarish korxonalarini kreditlashda banklarning roli ochib berilgan[1]
2. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management & Financial Services. 10th Edition. – London: McGraw-Hill Education, 2020. – 768 p. Mualliflar tijorat banklari hamda moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni boshqarish jarayonlarini tahlil qilgan[2]
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 612 b. Ushbu manbada ishlab chiqarish korxonalarini soliqqa tortish tartibi belgilangan[3]
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Mazkur Davlat dasturi doirasida banklar tomonidan real sektor loyihalarini moliyalashtirish hajmini oshirish, foiz stavkalarini bozor mexanizmlari asosida optimallashtirish va raqamli bank xizmatlari ulushini keskin kengaytirish vazifalari belgilab berilgan[4]
5. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2022. – 540 b. Ushbu mandbada banklar tomonida ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash tartibi yoritilgan[5]
6. Omonov A.A., Qoraliev G.M. Moliyaviy menejment. Darslik. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti", 2023. – 320 b. Mualliflar korxonalar moliyaviy faoliyatini boshqarish masalalarini tahlil qilgan[6]

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash va soliqqa tortish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni yig'ishda O'zbekiston Respublikasining soliq va bank qonunchiligi, Statistika agentligi hamda tijorat banklarining ochiq hisobotlari asos qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasi korxonalarining moliyaviy holatini soliq manbalari prizmasi orqali baholashga asoslangan bo'lib, unda investitsion soliq kreditining iqtisodiy samaradorligini o'lchashda matematik modellashirish usuli qo'llanildi. Kreditlash jarayonidagi muammolarni klassifikatsiyalashda induksiya va deduksiya usullari orqali ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar guruhlandi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning sanoatni rag'batlantirishdagi soliq-kredit instrumentlari tajribasi qiyosiy o'rganilib, mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Tanlab olingan usullar majmuasi ishlab chiqarish subyektlarining kreditga bo'lgan ehtiyojini soliq tejanmanlari hisobiga qoplash mexanizmining ishonchligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash samaradorligi 2022-2025 yillar kesimida, soliq yukining o'zgarishi va kredit qaytaruvchanligi o'rtasidagi bog'liqlik asosida tahlil qilindi. Tahlil ob'ekti sifatida respublikamizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan 6 ta yirik va o'rta sanoat korxonalari (mashinasozlik, to'qimachilik va qurilish materiallari sohalari) tanlab olindi.

2022-2025 yillarda korxonalarining kredit portfelida soliq manbalarining ulushini tahlil qilish quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

❖ 2022-2023 yillarda o'rganilgan ob'ektlarda asosiy vositalarni yangilash uchun olingan kreditlarning 15% qismi soliq imtiyozlari hisobidan bo'shagan mablag'lar bilan qoplangan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich investitsion soliq krediti mexanizmi natijasida 22% ga yetdi.

❖ 2022-2025 yillar oralig'ida korxonalarda foyda solig'i stavkalarining barqarorligi va amortizatsiya ajratmalarining optimallasuvi natijasida ichki investitsion manbalar hajmi o'rtacha 1.4 baravarga oshganligi aniqlandi.

❖ Tahlil qilingan 6 ta ob'ektning 4 tasida qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) tezkor qaytarish tizimi joriy etilishi bankdan olinadigan qisqa muddatli aylanma mablag'lar uchun kredit foizlarini 12% gacha tejash imkonini berdi.

❖ 2024-yilda joriy qilingan kengaytirilgan soliq imtiyozlari natijasida, tanlangan korxonalarining texnologik liniyalarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan bank kreditlarining xizmat ko'rsatish xarajatlari soliq tejajmanlari hisobiga 18 foizga pasaydi.

❖ O'rganilgan ob'ektlarda soliq qarzdorligining yo'qligi va soliq hisobotlarining shaffofligi ularning kredit reytingini oshirib, banklardan 2-3 foiz pastroq stavkada resurs jalb qilishlariga zamin yaratdi.

❖ O'tkazilgan ekonometrik tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq manbalarini kreditlash jarayoniga



to'liq integratsiya qilish orqali 2025-yil yakuniga qadar ishlab chiqarish korxonalarining o'z-o'zini moliyalashtirish darajasi hozirgi 28% dan 35-37% gacha ko'tarilishi kutilmoqda.

Inersion rivojlanish va an'anaviy kreditlash bosqichi Ushbu davrda soliq imtiyozlari hisobiga bo'shagan mablag'lar hajmi 120.5 mlrd. so'mni tashkil etib, korxonalarning o'z-o'zini moliyalashtirish koeffitsiyenti eng past darajada (0.22) bo'lgan. Bu korxonalarning bank kreditlariga yuqori darajada qaramligini va soliq manbalaridan investitsion maqsadlarda foydalanish mexanizmi hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatadi. Kredit foizlarini qoplashda soliq tejajmanlarining ulushi atigi 10.2% ni

tashkil etgan, bu esa moliya-kredit tizimida soliq instrumentlarining o'rni cheklanganligidan dalolat beradi.

Soliq-kredit mexanizmlarining integratsiyalashuv bosqichi 2023-yilda soliq imtiyozlari hajmi 145.2 mlrd. so'mga yetib, o'sish sur'ati 20% ni tashkil etdi. QQSni qaytarish muddatining 30 kundan 25 kunga qisqarishi korxonalarning likvidlik darajasini oshirdi. Bu davrda investitsion soliq krediti qo'llanilgan loyihalar soni 14 tagacha ko'paydi. Ilmiy jihatdan bu holat davlatning sanoat korxonalarga bilvosita moliyaviy yordami (tax expenditure) kuchayganligini va kredit resurslari tannarxini pasaytirishga urinishlarni ifodalaydi.

1-jadval

Ishlab chiqarish korxonalarini kreditlashda soliq va moliya manbalari tahlili (2022-2025 yy.)

№	Soliq va moliya manbalari nomi	Kreditlashdagi roli va ahamiyati	2022-2023 yy. holati	2024-2025 yy. amaliy
1	Investitsion soliq krediti	Asosiy vositalarni yangilash uchun olingan kredit foizlarini qoplash.	Past darajada qo'llanilgan	Samaradorlik 22% ga oshgan
2	QQS refund (qaytarish)	Aylanma mablag'lar taqchilligini kamaytirish va qisqa muddatli kreditga ehtiyojni pasaytirish.	15-30 kun muddat	7-10 kunda tezkor qaytarish
3	Tezlashtirilgan amortizatsiya	Ichki investitsion manbani shakllantirish va kredit yukini kamaytirish.	Standart stavkalar	1.5 barobar tezlashtirilgan stavka
4	Foyda solig'i imtiyozlari	Bo'shagan mablag'larni kredit asosiy qarzini qaytarishga yo'naltirish.	Cheklangan imtiyozlar	Maqsadli (reinvestitsiya) imtiyozlar
5	Bojxona imtiyozlari	Texnologik uskunalar importi uchun kredit miqdorini kamaytirish.	Faqat ma'lum sohalar	Kengaytirilgan nomenklatura

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarning dinamik o'zgarishi ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy mustaqilligi ortib borayotganidan dalolat beradi. Quyida har bir yilning o'ziga xos iqtisodiy tahlili keltirilgan:

Sifat o'zgarishlari va investitsion faollik bosqichi 2024-yil tadqiqotda tub burilish yili sifatida baholanadi. Soliq tejajmanlarining kredit foizlarini qoplashdagi ulushi keskin ortib, 18.4% ga yetdi. Investitsion soliq krediti loyihalari soni esa 32 tani tashkil etdi. QQS refund tizimining 15 kungacha tezlashishi korxonalarga qisqa muddatli bank kreditlaridan voz kechish va foiz xarajatlarini tejash imkonini berdi. O'z-o'zini moliyalashtirish koeffitsiyentining 0.31 ga ko'tarilishi korxonalarning kreditga bo'lgan talabi sifat jihatidan o'zgarganini (iste'mol emas, rivojlanish uchun) ko'rsatadi.

Barqaror o'sish va yuqori samaradorlik (Prognoz) Prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, 2025-yilda soliq manbalari hisobiga shakllanadigan mablag'lar 210 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda. QQS qaytarishning 7

kunlik muddatga tushishi natijasida korxonalar aylanma mablag'larining deyarli 22% qismi soliq tejajmanlari hisobiga qoplanadi. O'z-o'zini moliyalashtirish darajasi 0.37 ga yetishi, ishlab chiqarish korxonalarining banklar oldidagi kredit riskini minimal darajaga tushiradi. Bu bosqichda soliq siyosati nafaqat budget tushumini ta'minlovchi, balki kreditlash amaliyotini rag'batlantiruvchi asosiy drayverga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishda an'anaviy bank instrumentlari bilan bir qatorda soliq mexanizmlaridan unumli foydalanish moliyaviy barqarorlikning garovidir. 2022-2025 yillardagi tendensiyalar tahlili soliq yukini kamaytirish va investitsion soliq kreditlarini kengaytirish korxonalarning o'z-o'zini moliyalashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishini isbotladi. Xususan, korxonalarda bo'shaydigan soliq tejajmanlari bank kreditlari uchun qo'shimcha to'lov manbai va garov



o'rnini bosuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi: birinchidan, ishlab chiqarish subyektlari uchun "investitsion soliq krediti" muddatlarini kreditning qaytarilish davriga moslashtirish (sinxronizatsiya) lozim. Ikkinchidan, yuqori texnologik uskunalarni xarid qilishda qo'llaniladigan bojxona va soliq imtiyozlarini tijorat banklari tomonidan "shartli garov" sifatida tan olinishi mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, QQSni qaytarish muddatlarini yanada qisqartirish orqali korxonalarning qisqa muddatli kreditlarga bo'lgan ehtiyojini kamaytirish va foiz xarajatlarini tejash zarur. To'rtinchidan, banklarning skoring tizimini soliq organlarining "Soliqchiko'makchi" platformasi bilan integratsiya qilish orqali shaffof soliq to'lovchi korxonalarga imtiyozli kredit stavkalarini qo'llash lozim. Beshinchidan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish korxonalari uchun tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini joriy etish ularning investitsion jozibadorligini oshiradi. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi korxonalarning kredit yukini o'rtacha 15-20 foizga kamaytirishga va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu yondashuv bank tizimidagi muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirishda muhim strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th Edition. – New York: Pearson, 2021. – 720 p.
- [2]. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management & Financial Services. 10th Edition. – London: McGraw-Hill Education, 2020. – 768 p
- [3]. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 612 b. (2024-yil 1-yanvardagi o'zgarishlar bilan).

[4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

[5]. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2022. – 540 b.

[6]. Omonov A.A., Qoraliev G.M. Moliyaviy menejment. Darslik. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti", 2023. – 320 b.

[7]. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – Toshkent: "Sharq", 2021. – 488 b.

[8]. Statistika agentligi rasmiy sayti – www.stat.uz (Sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlari, 2024-yil hisoboti).

[9]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – www.cbu.uz (Banklararo kredit bozorining tahliliy sharhlari, 2023-y.).

[10]. Iqtisodiyot va moliya vazirligi portali – www.mf.uz (Budjet va soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari, 2024-y.).

[11]. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Investitsion soliq krediti tartibi to'g'risidagi nizomlar to'plami).

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xasanov Shamsiddin Xafizovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, katta o'qituvchi / Хасанов Шамсиддин Хафизович Университет информационных технологий и менеджмента, старший преподаватель / Khasanov Shamsiddin Khafizovich University of Information Technology and Management, Senior Lecturer
E-mail: xasanovshamsiddin1977@gmail.com
ORCID: 0009-0001-6205-7841



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz